

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Ichki ishlar vazirligi
Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Yo‘l harakati
xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi huzuridagi yuridik fanlar bo‘yicha
fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi
DSc.32/05.05.2023.Yu.74.03 raqamli muassasalararo ilmiy kengash**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

NARZULLAYEV OTABEK SAYDULLA O‘G‘LI

**MITING, YIG‘ILISH VA NAMOIYISHLARNI O‘TKAZISHDA JAMOAT
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING HUQUQIY JIHATLARI**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi.
Jamoat xavfsizligini ta‘minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the Doctoral Dissertation

Narzullayev Otabek Saydulla o‘g‘li

Miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazishda jamoat
xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy jihatlari3

Нарзуллаев Отабек Сайдулла угли

Правовые аспекты обеспечения общественной безопасности при
проведении митингов, собраний и демонстраций.....23

Narzullayev Otabek Saydulla o‘g‘li

Legal aspects of ensuring public safety during rallies, meetings and
demonstrations.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works49

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Ichki ishlar vazirligi
Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Yo‘l harakati
xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi huzuridagi yuridik fanlar bo‘yicha
fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi
DSc.32/05.05.2023.Yu.74.03 raqamli muassasalararo ilmiy kengash**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

NARZULLAYEV OTABEK SAYDULLA O‘G‘LI

**MITING, YIG‘ILISH VA NAMOYISHLARNI O‘TKAZISHDA JAMOAT
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING HUQUQIY JIHATLARI**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi.
Jamoat xavfsizligini ta‘minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.2.PhD/Yu779-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jxu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zulfiqarov Sherzod Xurramovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/05.05.2023.Yu.74.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “29”-mart soat 15.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; mgjxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel./faks: (+99871) 230-32-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “__” _____dagi __-raqamli reestr bayonnomasi).

D.M. Mirazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

M.I. Maxsadov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

I.Yu. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash masalasi davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning doimiy diqqat markazida bo‘lib qolayotganligi, bunday ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tendensiyasi ortib borayotganligi, xususan, bir qator davlatlarda mazkur tadbirlar davomida ommaviy tartibsizliklarning yuzaga kelganligi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, Fransiyada 2018-yilning oxiri – 2019-yilning boshlarida “sariq jiletliharakatining norozilik namoyishlari oqibatida tadbirkorlar va davlat byudjetiga jami 2,5 mlrd yevro zarar yetganligi, butun mamlakat bo‘ylab 75 ming ishchining ishsiz qolganligi jahon hamjamiyati oldiga miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazish bilan bog‘liq ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ishonchli ta‘minlash, bunday tadbirlarni tashkil etishda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini qo‘ymoqda.

Jahonda miting, yig‘ilish va namoyishlarning kelib chiqish sabab va sharoitlarini tadqiq etish, ularning ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishini oldini olish hamda mazkur tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Miting, yig‘ilish va namoyishlarning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish, ularni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy hamda huquqiy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha, shuningdek miting, yig‘ilish va namoyishlarning ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketilishining oldini olish, xususan ushbu tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta‘minlashga oid chora-tadbirlar ishlab chiqish yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda yangi ish uslublarini joriy qilish, turli tahdidlarni kelib chiqishining oldini olish bilan bog‘liq milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”¹da ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha “Hudud metodikasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish vaqtida Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari tomonidan foydalaniladigan maxsus texnik vositalarni, shuningdek, tezkor axborot almashish, quyi tizimdagi bo‘linmalarni oqilona boshqarish va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi, ommaviy tadbir sifatida miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta‘minlash sohasini ilmiy tadqiq etish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5749291>

“2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2023” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 02-apreldagi PQ–5050-son “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 15-apreldagi PQ–5077-son “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va sohaga doir boshqa qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga hamda ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash keng qamrovli soha hisoblanib, ommaviy tadbir, jumladan, miting, yig‘ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta‘minlashning ayrim nazariy jihatlarini bo‘yicha olimlardan milliy olimlardan M.X. Rustamboyev, I. Ismailov, S.M. Selimanova, M.D. Maxsadov va boshqalar, xorijiy olimlardan V.T. Bolotnikov, A.B. Antonov, V.G. Ignatev, L.M. Rozin, N.M. Kazakov, A.V. Seregin va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning miting, yig‘ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan faoliyati va uni tashkil etishning ayrim masalalari yuzasidan milliy olimlardan I. Ismailov, M.Z. Ziyodullayev, S.N. Gordeyev, S.S. Sharipov, J.X. Yuldashev, X.D. Davletov, N.K. Esirgapov, F.Z. To‘laganov, B. Kukanov, M.K. Abduraxmonov, X.A. Xolmaxmatov, A.K. Xoshimov, xorijiy olimlardan Ye.S. Boyko, Yu.G. Arzamasov, V.M. Bezdenezhnik, K.S. Velskiy, V.N. Butilin, V.T. Ivanov, B.M. Yemelyanov, I.F. Kolontaevskaya, I.B. Kardashova, G.G. Laevskiy, V.I. Frizko, I.I. Knyazeva, D.K. Nechevin, V.I. Sevryukov, D.A. Baltaga, N.V. Karaxanov, S.N. Bocharov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Miting, yig‘ilish va namoyishlarni insonlarning tinch yig‘inlar o‘tkazish huquqi yuzasidan xorijiy olimlardan I.I. Veremeyenko, V. Vorobev, A. Yakimov, L.D. Voevodin, V.V. Gushin, V.T. Kovalev, I.S. Kolosov, L.A. Nudnenko, L.L. Popov, I.Sh. Kilyasxanov, Yu.I. Skuratov, M. Stepanov, A.A. Uvarov, A.V. Serebrennikova, M.A. Yakovemenko, N.I. Razdimalina va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Bundan tashqari, E.E. Shuls, V.A. Artyuxina, J. Loflend, Dj. Sharp kabi olimlar miting, yig‘ilish va namoyishlarni davlat xavfsizligi va suverenitetiga tahdid soluvchi harakatlar sifatida o‘rgangan.

Shuningdek, milliy olimlardan I. Ismailov, S.T. Axmedova, A.A. Xudoyberdiyev, shuningdek V.M. Kravsov, N.V. Karaxanov, V. Kelar kabi xorijiy olimlar tomonidan ommaviy tadbirlar, xususan, miting, yig‘ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini huquqiy jihatlarini bilan bog‘liq ayrim masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqot

ishlari o'tkazilgan bo'lsada, ammo boshqa ommaviy tadbirlarga qaraganda ijtimoiy-siyosiy ommaviy tadbir hisoblangan miting, yig'ilish va namoyishlar jamoat xavfsizligiga real tahdid keltirib chiqarishi mumkinligi negizida mazkur tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2021–2025-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta'minlashni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

miting, yig'ilish va namoyishlar bilan bog'liq tushunchalarni ilmiy tahlil qilish va tasniflash;

miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishni tartibga soluvchi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish;

miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi va unda mavjud muammolarni tadqiq qilish;

miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik va muvofiqlashtirishni tashkil etish holatini tahlil qilish;

miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;

miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini miting, yig'ilish va namoyishlar davrida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlashni tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-nazariy qarashlar, xorijiy tajriba va mazkur sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vab-saytning va (yoki) vab-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger o'z vab-saytidan va (yoki) vab-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan belgilangan tartibni buzgan holda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglarda, ko'cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da'vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadlarida foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi shartini qonunda aniq belgilash zarurati asoslantirilgan;

mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazilganda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida fuqaroviy qurolni olib yurishni qonun asosida qat'iy taqiqlash zarurati asoslab berilgan;

favqulodda holat sharoitlarida jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari va namoyishlar o'tkazilishini taqiqlash yoki cheklash, shuningdek ommaviy tartibsizlik, qonunga xilof ravishda yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari va namoyishlarga barham berish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, hayot maromini barqarorlashtirish bo'yicha tadbirlar va maxsus operatsiyalarni amalga oshirish zarurati asoslantirilgan;

fuqarolarning konstitutsion burchini bajarish samaradorligini oshirish maqsadida jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi faol ishtiroki vaqtida tan jarohati olganligi yoki vafot etganligida ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi lozimligi asoslantirilgan va O'zbekiston Respublikasining "Yig'inlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

qonuniy miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishni so'rab murojaat qilgan fuqarolarning tadbir o'tkazishlariga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilash lozimligi asoslantirilgan va O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni loyihasi ishlab chiqilgan;

miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarni oldini olishda faol ishtirok etgan fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash lozimligi asoslantirilgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qaroriga jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro huquq normalari, milliy normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi, ichki ishlar organlari faoliyati materiallari (miting, yig'ilish va namoyishlar bilan bog'liq jinoyat ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik materiallari)ni o'rganish asosida ishlab chiqilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar, miting, yig'ilish va namoyishlar hamda ularni o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar yuzasidan 500 dan ziyod huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, shuningdek ular sinovdan o'tkazilib, natijalari yetakchi xorijiy va milliy jurnallarda chop etilganligi, o'rganish natijalari vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undagi nazariy xulosa va takliflar O'zbekiston Respublikasi jinoyat va ma'muriy qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, sharhlash va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda "Ma'muriy huquq", "Jinoyat huquqi", "Jamoat xavfsizligi asoslari", "Jamoat xavfsizligini nazariy-huquqiy ta'minlash" fanlarini ilmiy-nazariy boyitishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati miting yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlashni huquqiy jihatdan takomillashtirish, mazkur sohadagi shaxs huquq va manfaatlarini himoya qilish darajasini oshirish, shuningdek ichki ishlar va boshqa vakolatli organlar faoliyatidagi tashkiliy-huquqiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan blogger hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog'idagi o'z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan belgilangan tartibni buzgan holda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglarda, ko'cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da'vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadlarida foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi shartini aniq belgilashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-679-son Qonunining 3-moddasi 2-bandi bilan O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son Qonuniga kiritilgan 12¹-moddasi 1-qismi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 17-dekabrda № 02/4-225-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning inobatga olinishi Internet jahon axborot tarmog'ida veb-sayt va (yoki) veb-sayt sahifasi yoxud boshqa axborot resursidan belgilangan tartibni buzgan holda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglarda, ko'cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da'vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadlarida foydalanilishini oldini olishni samarali ta'minlashga xizmat qilgan;

mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazilganda fuqaroviy qurolni olib yurish taqiqlashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagi "Qurol to'g'risida"gi O'RQ-550-son qonunining 9-moddasi 7-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 12-dekabrda № 29/1-1808-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning inobatga olinishi mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qilgan;

favqulodda holat sharoitlarida yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari va namoyishlar o'tkazilishini taqiqlash yoki cheklashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-dekabrda "Favqulodda holat to'g'risida"gi O'RQ-737-son Konstitutsiyaviy Qonunining 12-moddasi 1-qismi yettinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 17-dekabrda № 02/4-225-son ma'lumotnomasi), shuningdek favqulodda holat joriy etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasida ommaviy tartibsizlik, qonunga xilof ravishda yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari va namoyishlarga barham berish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, hayot maromini barqarorlashtirish bo'yicha tadbirlar va maxsus operatsiyalarni amalga oshirishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 2-iyuldagi

“Qoraqalpog‘iston Respublikasida joriy etilgan favqulodda holat rejimini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 252-son buyrug‘ining 5-bandi 4-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 12-dekabrda № 29/1-1809-son ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflarning inobatga olinishi favqulodda holat sharoitlarida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni oldini olishni samarali ta‘minlashga, shuningdek favqulodda holat joriy etilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek hayot maromini barqarorlashtirish bo‘yicha ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirishga xizmat qilgan;

fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi faol ishtiroki vaqtida tan jarohati olgan yoki vafot etganligida ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-yanvardagi “Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qaroriga jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 36-son qaroriga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish hamda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 17²-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazining 2023-yil 07-apreldagi “Ilmiy ishlanmani jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotiga joriy etilganligi haqida” № 19-son xulosasi). Mazkur takliflarning inobatga olinishi fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi faol ishtiroki vaqtida tan jarohati olgan yoki vafot etganligida ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 18 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 121 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi,

tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish hamda unda jamoat xavfsizligini huquqiy ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda miting, yig‘ilish va namoyishlar bilan bog‘liq tushunchalar mohiyati, ularni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik qiyosiy tahlil qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi “Miting, yig‘ilish va namoyishlar tushunchasi hamda tasnifining ilmiy tahlili” deb nomlangan. Unda muallif tomonidan fuqarolarning yig‘inlar o‘tkazish orqali o‘z fikrlarini erkin namoyon etishlari demokratik jamiyatning asoslaridan biri ekanligi yuzasidan fikr bildirilgan.

Bundan tashqari, dissertant tomonidan miting, yig‘ilish va namoyishlar bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilib, qator olimlar (M.X. Rustamboyev, I. Ismailov, M.Z. Ziyodullayev, S.N. Gordeev, S.T. Axmedova, A.A. Xudoyberdiyev, A.P. Korenev, N.Yu. Shvedova, A.B. Barixin, A.B. Borisov, S.I. Ojegov, D.N. Ushakov, Yu.I. Fedinskiy, A.Ya. Suxareva, V.E. Krutskix, U.Sh. Husainov, R. Jantasov)ning fikrlarini, shuningdek Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Belarus, Turkmaniston, Tojikiston Qirg‘iz Respublikalarining miting, yig‘ilish va namoyishlarni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq qonunchiligini o‘rgangan holda, “yig‘in o‘tkazish huquqi”, “yig‘in”, “miting”, “yig‘ilish”, “namoyish”, “ko‘cha yurishi”, “piket” va “fleshmob” tushunchalariga amaliy misollar asosida mualliflik ta‘riflari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazishda foydalaniladigan “targ‘ibot materiallari” hamda “miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkaziladigan joy” tushunchalariga mualliflik ta‘riflarini ishlab chiqish orqali, targ‘ibot materiallari va miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkaziladigan joyga qo‘yiladigan talablarni asoslashga harakat qilgan.

Qolaversa, dissertant tomonidan so‘nggi yillarda o‘tkazilayotgan miting, yig‘ilish va namoyishlarning transformatsiyaga uchrayotganligi, ya‘ni tadbirlarning onlayn platformaga ko‘chayotganligi amaliy misollar bilan tahlil qilinib, miting, yig‘ilish va namoyishlarni virtual olamda amalga oshirilishini huquqiy jihatdan tartibga solish lozimligi aytib o‘tilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “Miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishni tartibga soluvchi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikning qiyosiy tahlili” deb nomlanib, unda muallif miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishga oid xalqaro hamda milliy qonunchilik hujjatlari qiyosiy tahlil qilgan.

Tadqiqot natijasida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini qonunga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi kafolatlanganligi, lekin mazkur huquqni amalga oshirish mexanizmlarini belgilovchi qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi aniqlanib, mazkur sohada huquqiy bo‘shliqning mavjudligi asoslantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodeksida yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish uchun javobgarlikning belgilanganligi esa yuqorida ko‘rsatilgan

konstitutsiyaviy norma bilan huquqiy ziddiyatni keltirib chiqarayotganligi aniqlangan hamda asoslantirilgan.

Xususan, dissertant bir qator olimlar hamda ekspertlar fikrlarini tahlil qilgan holda miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish hamda o'tkazishni tartibga solish, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlash, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish, O'zbekistonni xalqaro reytinglardagi nufuzini yanada oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Yig'inlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qonuni qabul qilish zaruriyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslantirishga harakat qilgan.

Muallif mazkur normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishning dolzarbligini turli xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda O'zbekistonning mazkur sohadagi xalqaro reytinglarda egallab turgan o'rinlari bilan asoslantirishga harakat qilgan.

Dissertant miting, yig'ilish, namoyishlar, ko'cha yurishlari, piket va boshqa ijtimoiy faollik turlari ommaviy tadbirlarning bir turi hisoblansada, bunday tadbirlar negizida aksariyat hollarda fuqarolarning norozilik kayfiyati yotishi sababli ularni alohida huquqiy tartibga solish zarurati yuzasidan fikr bildirgan.

Bundan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy faollik shakllarini o'tkazishning ruxsat olish hamda xabardor qilish tizimi mavjudligi, ruxsat olish tizimi fuqarolarning yig'in o'tkazishga bo'lgan huquqlarini erkin amalga oshirishlarida byurokratik to'siq hisoblanishi bo'yicha tadqiqotchi tomonidan fikr bildirilgan. Ayni vaqtda, qabul qilinishi nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatda miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish tizimi fuqarolarning mazkur tadbirlarni o'tkazish bo'yicha mutasaddi tashkilotlarga xabarnoma yuborish orqali amalga oshirilishi lozimligi bo'yicha xulosalar Yevropa davlatlaridan Modlova, Polsha, Malta, Shimoliy Irlandiya, Buyuk Britaniya davlatlari, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan Armaniston, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasining milliy qonunchiligini tahlil qilish orqali dissertant tomonidan asoslantirilgan.

Tadqiqotlar davomida dissertant tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazilish shakli va tartibiga ko'ra ikkiga ajratilgan:

- 1) muqim bir joyda o'tkaziladigan – yig'ilish, fleshmob, miting, namoyish, piket;
- 2) yig'in ishtirokchilarining harakatlangan holda o'tkaziladigan – ko'cha yurishlari (marshlar).

Shuningdek, muallif tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish shakliga ko'ra quyidagi ikkiga ajratilgan:

- 1) an'anaviy (fuqarolarning miting, yig'ilish va namoyishlarda jismonan ishtirok etishi);

- 2) virtual (fuqarolarning Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib miting, yig'ilish va namoyishlar uyushtirishi va ularda ishtirok etishi).

Dissertatsiyaning **"Miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlashni huquqiy tartibga solishning bugungi holati va tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi va undagi tashkiliy-huquqiy muammolar, mazkur tadbirlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hamkorlikni tashkil etish va muvofiqlashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi va uning muammolari tahliliga bag'ishlangan

bo‘lib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan jamoat xavfsizligi ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlar hamda ushbu sohaning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning umumiy jihatlari huquqiy jihatdan tartibga solingan bo‘lsada, lekin aynan miting, yig‘ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tartib-qoidalari mavjud emasligiga urg‘u berib o‘tgan.

Dissertant miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazish tartibi qonun bilan tartibga solinmaganligiga qaramasdan, ushbu tadbirlar vaqtida jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta‘minlashning ahamiyatini ijtimoiy faollik turlarini amalga oshirish tendensiyasi ortib borayotganligi bilan, xususan, mamlakatning turli hududlarida o‘kazilgan bir qator miting, yig‘ilish va namoyishlarning Internet ijtimoiy tarmoqlarida shov-shuvga sabab bo‘lganligi misolida asoslashga harakat qilgan.

Bundan tashqari, muallif tomonidan bunday xulosaga kelinishida miting, yig‘ilish va namoyishlarni uyushtirish yoki o‘tkazish bilan bog‘liq jinoiy ishlarning o‘sinh tendensiyasiga (2018-yilda – 1 ta, 2019-yilda – 1 ta, 2020-yilda – 6 ta, 2021-yilda – 8 ta hamda 2022 yilda – 11 ta), shuningdek 2021-yil davomida sodir etilgan 386 ta, 2022-yil davomida esa sodir etilgan 4 441 ta ma‘muriy huquqbuzarliklarning o‘sinh ko‘rsatkichlariga tayangan.

Qolaversa, tadqiqotchi tomonidan miting, yig‘ilish va namoyishlarni uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarliklar tahlil qilinib, ishsizlik, ish haqining o‘z vaqtida berilmasligi, narx-navoning balandligi, ijtimoiy adolatsizlik holatlari, obyektlar va ko‘p qavatli uylarning noqonuniy qurilishi, atrof-muhitni ifloslanishi va daraxtlarni nobud qilinishi bilan bog‘liq hamda suv, gaz, elektr toki ta‘minoti va kommunal xizmatlardagi ijtimoiy muammolar, shuningdek mahalliy hokimiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlari rahbar va xodimlarining harakatlari (harakatsizligi)dan norozlik holatlari ularni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar ekanligi aniqlangan.

Dissertant tomonidan milliy qonunchilikda miting, yig‘ilish va namoyishlarni tashkil etish va o‘tkazishda faqatgina tadbir tashkilotchilari hamda ishtirokchilariga nisbatan javobgarlik belgilanganligi, ayni paytda ularga qarshilik ko‘rsatgan yoki to‘sqinlik qilgan shaxslarga nisbatan javobgarlik mavjud emasligiga oid fikrlar ilgari surilgan bo‘lib, ushbu fikrlarni asoslashda muallif Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Belarus, Qozog‘iston, Fransiya, Shvesiya kabi xorijiy davlatlarning qonunchiligida mavjud normalar bilan asoslantirishga harakat qilingan. Xususan, yuqoridagi masalalarni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qodeksning 201-moddasiga hamda Jinoyat kodeksining 217-moddasiga “miting, yig‘ilish va namoyishlar uyushtirish, tashkil etishga to‘sqinlik qilish yoki qarshilik ko‘rsatish”ni nazarda tutuvchi alohida 3-qism kiritish taklif etilgan.

Qolaversa, dissertant tomonidan miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazish tartibi, ularga qo‘yiladigan talablar hamda cheklovlar, mazkur tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning hamda davlat organlarining huquq va majburiyatlarini huquqiy tartibga solish zarurati bir qator xorijiy davlatlar (AQSh, Armaniston, Buyuk Britaniya, Gruziya, Estoniya, Qozog‘iston, Malta, Modlova, Ozarbayjon, Polsha, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Xorvatiya, Chernogoriya, Shimoliy Irlandiya) tajribasi bilan asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ikkinchi paragrafi miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi hamkorlikni tashkil etish va muvofiqlashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur sohadagi hamkorlikning maqsadi, mazmun-mohiyati, doirasi va bu boradagi vakolatli subyektlar vazifalari, shuningdek hamkorlikning bugungi holati, mavjud muammolar hamda muvofiqlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tahlil qilish orqali davlat organlarining miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatining qisman tartibga solinganligi yuzasidan fikr bildirilib, biroq aynan miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazilayotganda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat organlari o'rtasida olib borilishi lozim bo'lgan hamkorlikdagi harakatlar va ushbu chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish tartibi to'liq belgilanmasdan qolayotganligi asoslantirilgan.

Xususan, ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiya bo'linmalarining miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtidagi faoliyati tartibga solinmaganligiga qaramasdan, fuqarolarning ijtimoiy faollik turlarini amalga oshirishlari davomida ularni tarqatib yuborish yoki ular bilan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ba'zi hollarda ularga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash holatlarlarining yuz berayotganligi amaliy misollar bilan isbotlangan bo'lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtidagi jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatining yanada takomillashtirilishi zaruriyati yuzasidan fikr bildirilgan.

Bundan tashqari, dissertant tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlash, qo'poruvchilik, ommaviy tartibsizlik va boshqa favqulodda vaziyatlarni oldini olish borasida vazirlik va idoralararo hamkorlikni tashkil etish va muvofiqlashtirish metodikasini yaratish zarurati asoslantirilgan.

Unga ko'ra, tadqiqotchi tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida har bir vazirlik va idoralar O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir yo'nalishda olib borilayotgan faoliyatni muvofiqlashtirishi lozimligi yuzasidan fikr bildirilgan. Xususan,

ichki ishlar organlari bo'linmalarining respublikada jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda, shuningdek jamoat joylarida, shu jumladan yo'llarda, transport va turizm infratuzilmasi obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan vakolatli idoralarning barcha kuch va vositalar faoliyatini umumiy muvofiqlashtirishi hamda yagona idoralararo boshqaruv shtabini tashkil etishi;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo'linmalarining miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini, ushbu maqsadlar uchun moliyaviy, oziq-ovqat, tibbiy va moddiy-texnik resurslarning davlat zaxira fondlarini

shakllantirishga doir ishlarini muvofiqlashtirishi va ularning samarali hamkorligini tashkil etish choralari ko'rish;

Davlat xavfsizlik xizmati bo'linmalarining miting yig'ilish va namoyishlar o'tkaziladigan joylarda terrorizm va qo'poruvchilik harakatlariga qarshi operatsiyalarni bajarishda jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtirishi, nazorat qilishi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi;

Sog'liqni saqlash vazirligi muassasalarining miting, yig'ilish va namoyishlar ishtirokchilari va jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining sanitariya-epidemiologik xavfsizligini ta'minlashda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati muvofiqlashtirilishi lozimligi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, muallif tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha sohaviy xizmatlarning vazifalari va idoralararo hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlari metodikasini yaratish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorliklikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari yagona boshqaruv va mantiqiy ketma-ketlikka asoslanishi lozimligi ta'kidlangan bo'lib, miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bir-biri bilan uzviy bog'liqligi ularning biridagi ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar, albatta, boshqalarida ham shunday oqibatlarini keltirib chiqarishi yuzasidan fikr fildirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlarning aynan qaysi bo'linmalari tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash amalga oshirilishi normativ-huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi asoslantirilgan bo'lib, bunda ularning mazkur tadbirlar davomida amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari, muvofiqlashtirish hamda o'zaro hamkorlik masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish hamda o'tkazishda subyektlarning hamkorliklikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari ketma-ketligini o'z ichiga oluvchi uch bosqich, ya'ni tayyorgarlik, amalga oshirish va yakuniy bosqichlari bo'lishi lozimligi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, muallif tomonidan fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyekt ekanligini nazarda tutgan holda, ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash orqali miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ishtirokini kuchaytirishga erishish mumkinligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishda jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta'minlashni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida ayrim xorijiy davlatlardagi miting, yig'ilish va namoyishlar bilan bog'liq qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlari hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida miting, yig'ilish, namoyishlar, ko'cha yurishlari, piketlar yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish turli mamlakatlar konstitutsiyalarida o'z aksini topgan bo'lsada, ularni tashkil etish va o'tkazish tartibi maxsus qonun bilan tartibga solinganligini hamda bir qator o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi o'rganilgan.

Xususan, miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish bilan bog'liq bir qator davlatlar, jumladan, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Polsha hamda Skandinaviya davlatlari qonunchiligi va amaliyotini o'rganish asosida milliy tizimni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, Germaniya tajribasi bo'yicha taqiqlangan yoki ruxsat etilmagan miting, yig'ilish va namoyishlar jarayonida ishtirokchilarning yonida qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan predmet olib yurganligi uchun javobgarlik belgilanganligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida fuqarolarning konstitutsiyaga zid bo'lgan propaganda va agitatsiya ruhidagi miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishni taqiqlanganligi, tadbir o'tkazish mumkin bo'lgan hamda taqiqlangan geografik hududlar va joylarni belgilanganligi, jamoat xavfsizligiga xavfni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan miting, yig'ilish va namoyishlar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan jismoniy kuch va maxsus vositalarni qo'llash mumkinligi bugungi kunga qadar o'zining ijobiy samarasini berib kelayotganligi negizida dissertant ushbu ijobiy tajribaning milliy qonunchilikka tatbiq etilishi o'zining ijobiy samarasini berishi yuzasidan fikr bildirgan.

Fransiya tajribasidagi ijtimoiy faollikni o'tkazish bo'yicha murojaatda tashkilotchilarining to'liq ismi-sharifi va yashash manzili, tadbir maqsadi, o'tkazilish joyi, vaqti va sanasi, taxminiy ishtirokchilar soni hamda boshqa ma'lumotlarni qayd etishi, tadbir tashkilotchisi (tashkilotchilari) tomonidan miting, yig'ilish yoki namoyish o'tkazish bo'yicha maxsus blank-deklaratsiya to'ldirish tartibini joriy qilish hamda uni imzolovchi shaxs(lar)ga tadbirni tinch ravishda o'tishi va xavfsizlikni ta'minlashi yuzasidan mas'uliyatni yuklash kabi normalarning milliy qonunchilikka kiritilishi ham ijtimoiy faollik turini tartibli va tinch o'tishiga, ham huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kuch va vositalarini to'g'ri taqsimlashga xizmat qiladi, degan xulosaga kelgan.

Buyuk Britaniyaning miting, yig'ilish va namoyishlarni tinch o'tkazish maqsadida aholini politsiya bilan hamkorlikka jalb qilish (masalan, patrullik, eng kriminogen hududlarda navbatchilik qilish) bilan bog'liq tajribasini milliy qonunchilikka kiritilishi mamlakatda o'tkaziladigan ijtimoiy faolliklar davomida fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari qonunchiligidagi ijtimoiy faollik turini o'tkazish yuzasidan murojaatda ko'rsatilgan ma'lumotlar yetarli yoki aniq bo'lmagan taqdirda tadbirni o'tkazishni taqiqlash tartibi miting, yig'ilish va namoyishlarni to'g'ri qa qonuniy tashkil etishda qat'iy chegara belgilaydi va dissertant mazkur ilg'or normalarni milliy qonunchiligimizga kiritish lozim deb hisoblangan.

Yaponiya hukumatiga miting, yig'ilish, namoyish va boshqa tadbirlarni o'tkazish sanasi, vaqti, joyi yoki harakat marshrutini o'zgartirish bo'yicha talablar qo'yish vakolatini berilganligi jamoat xavfsizligini ta'minlashning doimiy nazorat qilinishini ta'minlashga xizmat qilib, muallif ushbu ilg'or normani milliy qonunchiligimizda ham inobatga olish kelgusida jamoat xavfsizligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi degan xulosaga kelgan.

Polsha qonunchiligi bo'yicha ommaviy yig'ilishlarni o'tkazilishi fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'dirsa yoxud yig'ilishlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan taqdirda, hududiy hokimiyat organlari tomonidan jamoat

xavfsizligini ta'minlash maqsadidan kelib chiqqan holda tadbirni o'tkazishni taqiqlash, oldindan xabarnoma taqdim etilmasdan o'tkazilgan har qanday yig'ilishni, shuningdek hokimiyat organlarini xabardor qilmasdan Internet ijtimoiy tarmoqlari yordamida tashkil etilgan miting, yig'ilish va namoyishlarni noqonuniy deb hisoblash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida taqdim etayotgan xabarnomada tadbir tashkilotchisini rasmiy ogohlantirish shartlarining milliy tizimga tatbiq etilishi o'z samarasini berishini muallif ta'kidlaydi.

Skandinaviya modeli bo'yicha miting, yig'ilish va namoyish ishtirokchilari bilan doimiy muloqot olib borish, vaziyatdan xabardor bo'lish, xavf-xatarni tahlil qilish orqali zo'rovonlik holatlarini oldini olish tadqiqotchi tomonidan mamlakatimiz huquq-tartibot organlarining miting, yig'ilish va namoyishlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishiga aylantirilishi lozim, degan xulosaga kelgan.

Bundan tashqari, muallif miting, yig'ilish va namoyishlar Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston Respublikasida "Tinch yig'ilishlar tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi, Tojikiston Respublikasida "Yig'ilish, miting, namoyish va ko'cha yurishlari to'g'risida"gi, Turkmaniston Respublikasida "Yig'ilish, miting, namoyish va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi hamda Qirg'iz Respublikasida "Tinch yig'ilishlar to'g'risida"gi qonun hujjatlari bilan tartibga solinganligini ta'kidlar ekan, faqatgina O'zbekistonda xuddi shunday normativ-huquqiy hujjat bugungi kunga qadar qabul qilinmaganligi bir qator salbiy holatlarni keltirib chiqarayotganligiga yana bir bor urg'u berib o'tgan.

Qolaversa, dissertant xorij tajribasini tahlil qilar ekan, miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish tartibiga ko'ra quyidagi ikki modelga ajratgan:

birinchi model – fuqarolar va yuridik shaxslarning mahalliy hokimiyat yoki huquq-tartibot organlarini xabardor qilgan holda miting, yig'ilish yoki namoyishlarni o'tkazishlari;

ikkinchi model – fuqarolar va yuridik shaxslarning mahalliy hokimiyat yoki huquq-tartibot organlariga ariza orqali murojaat qilib ruxsat olgan holda miting, yig'ilish yoki namoyishlarni o'tkazishlari.

Shuningdek, muallif miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish hamda o'tkazishga ruxsat berish yoki taqiqlash vakolatiga ko'ra davlat organlarini quyidagi ikki guruhga ajratgan:

birinchi guruh – fuqarolar va yuridik shaxslarning miting, yig'ilish va namoyish o'tkazish yuzasidan mahalliy hokimiyat organlariga murojaat qilishlari;

ikkinchi guruh – fuqarolar va yuridik shaxslarning miting, yig'ilish va namoyish o'tkazish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishlari.

Bundan tashqari, tadqiqotchi AQSh tajribasini o'rganar ekan, ijtimoiy faollik turlarini o'tkazish bo'yicha nodavlat-notijorat tashkilotlarining huquqiy yordam markazlari mavjud ekanligiga urg'u berib, ular tomonidan miting, yig'ilish, namoyishlarni to'g'ri va qonuniy amalga oshirish yuzasidan maxsus trening mashg'ulotlari o'tkazilishi yo'lga qo'yilganligini ta'kidlar ekan, ushbu ijobiy tajribaning milliy tizimda joriy etilishi o'z samarasini berishi mumkinligi to'g'risida fikr bildirgan.

